Hamroyeva Zuhra Amiral qizi	
АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ	961
Ариф Мустафаев	
ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ.....	968
Ишонкулова Феруза Асатовна	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION HUQUQIY SIYOSATIDA GLOBAL REYTINGLARNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	974
Gavhar Bekmurodova Adham qizi	
XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	981
Ochilova Xusniya Olim qizi, Yuldasheva Umida Asanaliyevna	
JAHONDA BRONLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINING EVOLYUTSIYASI.....	987
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJRIBALARI.....	994
Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li	
HUDUDIIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDA RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI	1002
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASHTERINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	1016
Авезова Шахноза Махмуджановна	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA’MINOT ZANJIRI MODEL.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafruz Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	



QISHLOQ XO'JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA'MINOT ZANJIRI MODELI

Olimova Bahora Shuxratovna

Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti

bahoraolimova46@gmail.com

ORCID: 0009-0004-2281-4782

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga yetkazishda logistika xarajatlarini kamaytirishning innovatsion usullari va optimal ta'minot zanjiri modelini ishlab chiqish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida logistika jarayonlarining samaradorligini oshirish, transport va saqlash xarajatlarini minimallashtirish, shuningdek, raqamli va innovatsion texnologiyalar orqali ta'minot zanjirini optimallashtirish metodlari o'rganiladi. Maqola qishloq xo'jaligi mahsulotlarining vaqtida yetkazilishi va sifatini saqlashda samarali yechimlarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, logistika xarajatlari, ta'minot zanjiri, innovatsion metodlar, ichki va tashqi bozorlar, raqamlashtirish, optimallashtirish.

Abstract: The article analyzes the development of innovative methods for reducing logistics costs and designing an optimal supply chain model for delivering agricultural products to domestic and foreign markets. The study examines approaches to improving the efficiency of logistics processes, minimizing transportation and storage costs, and optimizing supply chains through digital and innovative technologies. The article proposes effective solutions aimed at ensuring timely delivery of agricultural products and maintaining their quality.

Key words: agricultural products, logistics costs, supply chain, innovative methods, domestic and foreign markets, digitalization, optimization.

Аннотация: В статье анализируются вопросы разработки инновационных методов снижения логистических затрат и формирования оптимальной модели цепи поставок при поставках сельскохозяйственной продукции на внутренние и внешние рынки. В ходе исследования изучаются способы повышения эффективности логистических процессов, минимизации транспортных и складских расходов, а также оптимизации цепи поставок с использованием цифровых и инновационных технологий. В статье предлагаются эффективные решения, направленные на своевременную доставку сельскохозяйственной продукции и сохранение её качества.

Ключевые слова: сельскохозяйственная продукция, логистические затраты, цепь поставок, инновационные методы, внутренние и внешние рынки, цифровизация, оптимизация.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish tizimi mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi, oziq-ovqat xavfsizligi va eksport salohiyatining o'sishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Ayniqsa, tez buziladigan mahsulotlar ulushining yuqoriligi, mavsumiylikning keskinligi, transport masofalarining uzoqligi va logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmagani sharoitida yetkazib berish jarayonlarini samarali boshqarish muammosi yanada dolzarb bo'lmoqda. Transport xarajatlarining umumiy tannarxdagi yuqori ulushi, sovutish zanjiri (cold chain) ning ko'plab hududlarda barqaror ishlamasligi, mahsulotlarni yig'ish-saralash-saqlash bosqichlarida yuzaga keladigan yo'qotishlar tizimni kompleks optimallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish logistika tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi. Xususan, raqamli monitoring tizimlari, IoT sensorlari va GPS-trackerlari yordamida mahsulot harorati, namligi, vibratsiyasi va boshqa muhim parametrlarni real vaqt rejimida kuzatish mumkin bo'lib, bu sifatning pasayishiga olib keluvchi omillarni oldindan aniqlash va yo'qotishlarni kamaytirishni



ta'minlaydi. Avtonom transport vositalari, dronlar va aqlli yuk tashish platformalari esa yuklarni tezroq, xavfsizroq va energiya tejamkor tarzda yetkazish imkonini yaratadi. Shuningdek, aqlli omborlar (smart warehouses)ni joriy qilish, robotlashtirilgan yuklash-tushirish tizimlaridan foydalanish va avtomatlashtirilgan inventar boshqaruvi logistika xarajatlarini optimallashtirishda muhim o'rin tutadi.

Ushbu jarayonlarni yagona tizimga birlashtirish uchun optimal ta'minot zanjiri modelini ishlab chiqish zarur. Bunday model ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha bo'lgan barcha bosqichlarning – yig'ish, dastlabki qayta ishlash, saqlash, transport, bojxona jarayonlari va yakuniy yetkazishning – yuqori samaradorlik bilan ishlashini ta'minlaydi. Natijada mahsulotning ichki va tashqi bozorlarga o'z vaqtida yetib borishi, eksport sharoitlarining yaxshilanishi, isrof va yo'qotishlarning kamayishi, hamda mahsulot sifati va raqobatbardoshligining oshishi ta'minlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jaligi logistikasida xarajatlarni optimallashtirish masalalari global ta'minot zanjirlarining murakkablashuvi, talabning mavsumiy tebranishi va mahsulotlarning buziluvchanligi sababli ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishiga aylangan. So'nggi o'n yilliklarda bu boradagi tadqiqotlar asosan raqamlashtirish, IoT monitoringi, transportni optimallashtirish, Cold Chain boshqaruvi, va ta'minot zanjiri klasterlari kabi yo'nalishlarda rivojlangan.

Logistika nazariyasining klassik asoschilaridan biri bo'lgan Bowersox va Kloss integratsiyalashgan ta'minot zanjiri modelining samaradorlikni oshirishdagi rolini ta'kidlab, transport–saqlash–iste'mol bo'g'inlarining yagona boshqaruv tizimida ishlashi xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishini asoslab bergan [1]. Ularning nazariy izlanishlari keyingi amaliy model va algoritmlarning shakllanishiga zamin yaratgan.

Raqamli texnologiyalar ta'siri bo'yicha Verdouw, Wolfert va Beulens IoT sensorlari yordamida harorat, namlik va jo'natma holatini real vaqtda monitoring qilish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarida yo'qotishlarni 20–30% gacha kamaytirish mumkinligini ko'rsatgan [2]. Tadqiqotlar IoT tizimlarining buziluvchan mahsulotlarni tashish va saqlash jarayonidagi aniqlik va kuzatuvchanlikni oshirishini tasdiqlagan.

Ta'minot zanjirida shaffoflikni oshirish bo'yicha blockchain texnologiyalarining qo'llanilishi Tian tomonidan batafsil o'rganilgan [3]. Uning natijalari traceability tizimlarining eksport bozorlari uchun zarur bo'lgan sifat sertifikatini, xavfsizlik va kelib chiqish manbasini tasdiqlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Transport logistikasini optimallashtirish bo'yicha Dantzig tomonidan ishlab chiqilgan chiziqli optimizatsiya modellari (MILP) va Clarke–Wrightning mashhur VRP algoritmi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashish xarajatlarini kamaytirishda keng qo'llaniladi [4], [5]. Ushbu modellar marshrutlarni qisqartirish, tashish vaqtini optimallashtirish va transport vositalari yuklanishini maksimal darajada oshirish uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Cold Chain boshqaruvi bo'yicha ilg'or tadqiqotlarni Shewfelt va Prussia olib borib, sovutish jarayonlari va harorat nazorati mahsulot sifatining uzoq muddat saqlanishida hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlaganlar [6]. Ularning natijalari energiya sarfini optimallashtirish, sensorlar orqali monitoringni kuchaytirish va ombor harorati boshqaruvin avtomatlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Yevropa tajribasida qishloq xo'jaligi logistika klasterlarini o'rganishda Porterning klaster nazariyasi va Fernie & Sparks tomonidan ishlab chiqilgan agrologistika modelidan keng foydalaniladi. Fernie Yevropadagi markazlashgan ombor tizimlari transport xarajatlarini 15–20% ga qisqartira olishini empirik ravishda isbotlagan [7].

Shuningdek, global logistika tizimlarining modernizatsiya qilishda Chopra va Meindl ta'minot zanjiri dizayni, talab prognozi va xavflarni boshqarish orqali samaradorlikni oshirishning kompleks yondashuvini ta'kidlaydi [8].

O'zbekiston sharoitida ilmiy ishlar soni cheklangan bo'lsa-da, mahalliy tadqiqotchilar qishloq xo'jaligi logistikasi bo'yicha ombor infratuzilmasi, transport xarajatlari va raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi haqida izlanishlar olib bormoqda. Bu yo'nalishda iqtisodiy tahlil va raqamli monitoring tizimlarini qo'llashning milliy samaradorligi bo'yicha yangi ilmiy ishlar shakllanmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda ichki va tashqi bozorlarga yetkazib berish jarayonining mavjud holati tahlil qilinib, asosiy xarajat omillari — transport, saqlash, sovutish zanjiri, bojxona jarayonlari va yo'qotishlar aniqlab olindi. Ikkinchi bosqichda innovatsion yechimlar asosida optimal ta'minot zanjiri modeli ishlab chiqildi: IoT-monitoring, real vaqt rejimidagi logistik ma'lumotlar platformasi, sun'iy intellekt asosida yo'nalishlarni optimallashtirish hamda blokcheyn orqali shaffof izlenish tizimi integratsiya qilindi. Uchinchi bosqichda esa ishlab chiqilgan model samaradorligi baholandi. Buning uchun xarajatlar dinamikasi bo'yicha "oldin–keyin" taqqoslash, logistika KPllari (vaqt, yo'qotish, xarajat, yetkazib berish aniqligi) tahlili, iqtisodiy baholash (CBA) hamda ko'p mezonli baholash usullari (AHP–TOPSIS) qo'llandi. Natijada taklif etilgan modelning xarajatlarni optimallashtirish va raqobatbardoshlikni oshirishdagi afzalliklari aniqlab berildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga yetkazishda asosiy xarajatlar transport, saqlash, yuklash-tushirish operatsiyalari hamda mahsulot sifatini saqlash bilan bog'liq xarajatlardan iborat. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, transport xarajatlari umumiy logistika xarajatlarining 40–60 foizini tashkil qiladi. Shu sababli ularni optimallashtirish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur. Samarali transport yo'llarini tanlash, yuklarni markaziy omborlarga konsolidatsiya qilish va vaqt rejimiga asoslangan yetkazib berish rejalari xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar logistika tizimini tubdan o'zgartirmoqda. IoT qurilmalari orqali mahsulotning harorat va namlik kabi parametrlarini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati mahsulot sifatini saqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt va big data analitika vositalari transport yo'nalishlarini optimallashtirish va yuk tashish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Masalan, GPS va IoT texnologiyalari bilan jihozlangan transport vositalari mahsulotni yetkazib berish vaqtini qisqartiradi va umumiy xarajatlarni 15–25 foizgacha kamaytiradi.

Optimal ta'minot zanjiri modeli qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish jarayonining barcha bosqichlarini — ishlab chiqarish, saqlash, transport va realizatsiya jarayonlarini — yagona tizimda birlashtiradi. Ushbu modelda markazlashgan omborlar, avtomatlashtirilgan inventarizatsiya tizimlari va bozor talabini bashoratlovchi algoritmlar qo'llaniladi. Natijada mahsulot yetkazib berishdagi kechikishlar kamayadi, isrof darajasi minimal bo'ladi va xavflar ancha kamayadi.

Ichki bozor uchun yetkazib berish strategiyasida mahsulotlarni qisqa masofalarga tezkor yetkazish, markaziy tarqatish punktlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Tashqi bozorlarga eksport qilinadigan mahsulotlar uchun esa logistika tizimi bojxona protseduralari, transport yo'llari va xalqaro standartlarga mos saqlash sharoitlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bu yondashuv xarajatlarni kamaytirish bilan birga mahsulot sifatini saqlash va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Logistika xarajatlarini kamaytirish uchun quyidagi amaliy chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

- mahsulotni yetkazib berish vaqtini optimallashtirish uchun transport yo'nalishlarini algoritmik tarzda rejalashtirish;
- markazlashgan omborlar va konsolidatsiya punktlarini yaratish orqali yuk tashish samaradorligini oshirish;
- raqamli monitoring va IoT tizimlari yordamida mahsulot sifatini saqlash va isrofnii kamaytirish;
- bozor talabini oldindan prognoz qilish va ishlab chiqarish hajmini moslashtirish.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berishda transport tizimining samaradorligi xarajatlarni kamaytirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Avtomatlashtirilgan transport boshqaruv tizimlari (TMS) orqali yuklar dinamik tarzda rejalashtiriladi, eng qisqa va xavfsiz yo'nalishlar tanlanadi. Shuningdek, elektromobillar va gidrid transport vositalari kabi ekologik toza va energiya tejankor transport vositalarini joriy etish orqali uzoq muddatli xarajatlarni kamaytirish mumkin.

Mahsulot sifatini saqlash va isrofgarchilikni kamaytirish uchun aqlli ombor tizimlari katta ahamiyatga ega. Masalan, harorat va namlikni avtomatik nazorat qiluvchi IoT qurilmalari, robotlashtirilgan yuklash-tushirish tizimlari va modulli omborlar mahsulotlarni xavfsiz saqlashni ta'minlaydi. Shuningdek, bulutli ma'lumotlar bazasi orqali inventarizatsiya va talabni prognoz qilish samaradorlikni oshiradi.

Raqamlashtirish qishloq xo'jaligi logistikasida strategik ahamiyatga ega. ERP tizimlari, big data va sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan algoritmlar yetkazib berish zanjirini real vaqt rejimida monitoring qilish, talabni prognoz qilish va resurslarni optimal taqsimlash imkonini beradi. Bu esa mahsulotlarning bozorga yetib kelish vaqtini qisqartiradi, xarajatlarni kamaytiradi va xaridor ehtiyojlarini tezroq qondirishga yordam beradi.

Ichki bozor talabini qondirish uchun yetkazib berish tizimi qisqa masofalarga tezkor yetkazish va markazlashgan tarqatish infratuzilmasiga asoslanadi. Tashqi bozorlarda esa transport yo'llari, bojxona protseduralari, xalqaro sertifikatlar va mahsulotning saqlash sharoitlari hisobga olinadi. Shu tarzda moslashtirilgan logistika strategiyalari mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlaydi va eksport imkoniyatlarini oshiradi.

Zamonaviy logistika tizimida barqarorlik omili ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik toza transport vositalaridan foydalanish, qayta ishlanadigan paketlash materiallarini joriy etish va energiya tejankor omborlarni yaratish nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki mahsulotning ekologik tozaligini ta'minlaydi. Barqaror yondashuv isrofnii oldini oladi va kompaniyaning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi.

Dunyodagi ilg'or tajribalar shuni ko'rsatadiki, aqlli transport tizimlari va raqamli monitoringni joriy etgan kompaniyalar logistika xarajatlarini 20–30 foizgacha kamaytirgan. Masalan, Niderlandiyadagi qishloq xo'jaligi kompaniyalari IoT va ERP tizimlari orqali transportni optimallashtirib, mahsulot sifatini saqlagan holda logistika samaradorligini oshirgan. Bu tajribalarni O'zbekiston sharoitiga ham moslashtirish mumkin.



Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berishda risklarni minimallashtirish ham muhim hisoblanadi. Risklar transportdagi kechikishlar, ob-havo sharoitlari, mahsulotning tez buzilishi va bozor talabining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuning uchun risklarni boshqarish tizimini ishlab chiqish zarur. Bunda mahsulotni diversifikatsiya qilish, zaxira omborlarini tashkil etish va transport yo'nalishlarining alternativ rejalarini ishlab chiqish talab etiladi. Sun'iy intellekt va big data analitikasi yordamida risklarni oldindan aniqlash va ularga tezkor javob berish imkoniyati yaratiladi.

Optimal ta'minot zanjirida mahsulot sifatini saqlash muhim ahamiyatga ega. Mahsulot yetkazib berish jarayonida harorat, namlik va transport sharoitlarini doimiy monitoring qilish orqali sifatning pasayishi va yo'qotishlar oldini olish mumkin. Shuningdek, ISO 22000 va HACCP kabi xalqaro standartlarga asoslangan tizimlardan foydalanish mahsulotning ichki va tashqi bozorlar talabiga mos kelishini ta'minlaydi.

Innovatsion metodlarni joriy etish dastlabki investitsiya talab qilsa-da, uzoq muddatda sezilarli iqtisodiy samara beradi. Masalan, avtomatlashtirilgan omborlar va aqlli transport tizimlari logistika xarajatlarini 15–30 foizgacha kamaytiradi, yetkazib berish vaqtini qisqartiradi va mahsulot sifatini barqaror saqlaydi. Raqamli monitoring orqali isrof kamayadi va bozor talabiga moslashish tezlashadi.

Qishloq xo'jaligi logistikasida integratsiyalashgan yondashuv — ishlab chiqaruvchilar, transport kompaniyalari, omborlar va sotuvchilarni yagona raqamli tizimga birlashtirish — samaradorlikni oshirishning asosiy yo'li hisoblanadi. Kelajakda aqlli algoritmlar, sun'iy intellekt va IoT texnologiyalarini kengroq tatbiq etish orqali xarajatlarni yanada kamaytirish, yetkazib berish tezligini oshirish va mahsulot sifatini maksimal darajada saqlash mumkin.

Mahsulot yetkazib berish jarayonining samaradorligi ko'pincha mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan logistika kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikka bog'liq. Mahalliy fermerlar va klasterlar bilan integratsiyalashgan tizimni yaratish orqali transport xarajatlarini kamaytirish, mahsulotni tez yetkazish va isrofnı minimallashtirish mumkin. Shuningdek, mahsulotni yig'ish va markaziy omborlarga yetkazish jarayonlarini optimallashtirish orqali vaqt va resurslardan tejamkor foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Big data va analitik platformalar yetkazib berish jarayonini doimiy tahlil qilish imkonini beradi. Bu orqali mahsulotga talab yuqori bo'lgan hududlarni oldindan aniqlash, transport yo'nalishlarini optimallashtirish va zaxira omborlarini samarali boshqarish mumkin bo'ladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya, aqlli omborlar va IoT texnologiyalari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Masalan, Niderlandiya, Germaniya va AQShdagi korxonalar logistika tizimini avtomatlashtirish orqali xarajatlarni 20–30 foizga kamaytirgan. O'zbekiston sharoitida ham bunday tizimlarni joriy etish orqali ichki va tashqi bozorlarda barqaror va tejamkor logistika modeli yaratish mumkin.

Innovatsion logistika tizimlarini joriy etish nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Elektr transport vositalaridan foydalanish, qayta ishlanadigan paketlash materiallari va energiya tejamkor omborlar ekologik xavfsizlikni kuchaytiradi hamda kompaniyaning ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlarini oshiradi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga yetkazishda integratsiyalashgan va raqamli ta'minot zanjiri modeli eng muhim yechimlardan biri hisoblanadi. Bu model ishlab chiqaruvchilar, transport kompaniyalari, omborlar va sotuvchilarni yagona tizimga birlashtirib, yetkazib berish jarayonini real vaqt rejimida nazorat qiladi va qaror qabul qilishni avtomatlashtiradi. Natijada xarajatlarni kamayadi, mahsulot sifati saqlanadi va bozor talabiga tez moslashish imkoniyati oshadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga samarali yetkazib berish jarayonida logistika tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Transport, saqlash, sovtutish zanjiri va yuklash-tushirish operatsiyalari umumiy xarajatlarning asosiy qismini tashkil etadi. Ushbu xarajatlarni optimallashtirish nafaqat logistika samaradorligini oshiradi, balki mahsulot sifatini saqlash, eksport salohiyatini kuchaytirish va bozordagi raqobatbardoshlikni ta'minlashda strategik omil sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli monitoring, IoT qurilmalari, sun'iy intellekt asosida yo'nalishni optimallashtirish va avtomatlashtirilgan ombor tizimlari kabi innovatsion texnologiyalar xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish, jarayonlarni shaffoflashtirish hamda yetkazib berishning aniqligi va tezligini oshirish imkonini beradi.

Integratsiyalashgan va raqamli ta'minot zanjiri modeli qishloq xo'jaligi logistikasining barcha bo'g'inlarini yagona boshqaruv tizimiga birlashtiradi. Bunday tizim real vaqt ma'lumotlariga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi, isrof darajasini keskin kamaytiradi, ishlab chiqaruvchilar va distribyutorlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. Ichki bozorlar uchun moslashtirilgan "tezkor yetkazib berish + markazlashgan tarqatish" modeli, eksport bozorlari uchun esa xalqaro standartlarga moslashtirilgan "sertifikatlash + ekologik saqlash + optimallashtirilgan transport yo'llari" modeli samaradorlikni yanada oshiradi.



Logistika tizimiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ekologik barqarorlikni kuchaytiradi. Energiya tejamkor transport vositalari, qayta ishlanadigan paketlash materiallari va barqaror sovutish zanjirlari kompaniyalarning ekologik izini kamaytiradi va xalqaro bozorda ularning imidjini yaxshilaydi. Bu esa eksport jarayonlarida qo'shimcha ustunlik yaratadi. Mahsulot sifatining saqlanishi, yetkazib berish tezligi va xarajatlarning kamayishi mahalliy fermerlar va klasterlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi, iste'molchilarga esa barqaror narx va sifat kafolatlaydi.

Takliflar:

- Raqamli logistika platformasini yaratish. IoT, GPS, blokcheyn va AI texnologiyalarini yagona monitoring platformasiga birlashtirish jarayonlarning shaffofligini oshiradi va yo'qotishlarni kamaytiradi.
- Aqlli omborlar va sovutish zanjirini rivojlantirish. Mahsulot sifatini saqlash hamda eksport uchun mos standartlarni ta'minlashda modulli va robotlashtirilgan ombor tizimlari joriy etilishi zarur.
- Transport yo'nalishlarini algoritmik optimallashtirish. TMS (Transport Management System) orqali eng qisqa, tejamkor va xavfsiz yo'nalishlarni tanlash xarajatlarni 20–30% ga kamaytirishi mumkin.
- Mahalliy klasterlar bilan integratsiyalashgan tizim yaratish. Fermerlar, kooperativlar va logistika kompaniyalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish transport xarajatlarini qisqartiradi va yetkazib berish muddatini kamaytiradi.
- Eksport uchun xalqaro standartlarga mos sertifikatlash tizimini takomillashtirish. ISO 22000, GlobalG.A.P va HACCP talablariga mos saqlash va yetkazib berish bo'yicha yagona metodikani joriy etish eksport salohiyatini oshiradi.
- Barqaror logistika tamoyillarini keng joriy etish. Elektr transport vositalari, qayta ishlanadigan qadoqlash materiallari va energiya tejamkor sovutish tizimlari ekologik xavfsizlik va xarajat tejamkorligini oshiradi.
- Bozor talabi va logistika risklarini prognoz qilish uchun AI modellarini keng qo'llash. Bu usul mavsumiy tebranishlar va transportdagi uzilishlarni oldindan bashoratlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish tizimini modernizatsiya qilish, raqamli va innovatsion metodlarni joriy etish mahsulotlarning tejamkor, barqaror va sifatli yetkazilishini ta'minlaydi. Taklif etilgan model O'zbekiston sharoitiga mos keladi va dunyoning ilg'or amaliyotlari bilan uyg'un holda mamlakatning logistika infratuzilmasini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGANADABIYOTLAR

1. D. J. Bowersox and D. J. Closs, *Logistical Management: The Integrated Supply Chain Process*. New York: McGraw-Hill, 1996.
2. C. Verdouw, J. Wolfert, A. Beulens, and A. Rialland, "Virtualization of food supply chains with the Internet of Things," *Journal of Food Engineering*, vol. 176, pp. 128–136, 2016.
3. F. Tian, "An agri-food supply chain traceability system for China based on RFID and blockchain technology," in *Proc. 13th Int. Conf. Service Systems and Service Management*, 2016, pp. 1–6.
4. G. B. Dantzig, *Linear Programming and Extensions*. Princeton University Press, 1963.
5. G. Clarke and J. Wright, "Scheduling of vehicles from a central depot to a number of delivery points," *Operations Research*, vol. 12, no. 4, pp. 568–581, 1964.
6. R. L. Shewfelt and S. E. Prussia, *Postharvest Handling: A Systems Approach*, 3rd ed. Amsterdam: Academic Press, 2009.
7. J. Fernie and L. Sparks, *Logistics and Retail Management*, 3rd ed. London: Kogan Page, 2009.
8. S. Chopra and P. Meindl, *Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation*, 6th ed. Pearson, 2016.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
